



# Demografik holat


(dastlabki ma'lumotlar)

**Doimiy aholi soni.** Qashqadaryo viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 iyul holatiga **3240,3** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 27,2 ming kishiga yoki 0,8 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni **1394,6** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 43,0 %), qishloq aholisi soni 1845,7 ming kishini (57,0 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2019 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **27,2 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **36,5 ming nafarni** tashkil etdi.
- **6,0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **8,7 mingta nikoh** va **0,8 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Qashqadaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2019 yil yanvar-iyun oylarida)



### Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)


	2018 yil	2019 yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish yoki kamayish sura'ti, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3175,1</b>	<b>3240,3</b>	<b>102,1</b>
Qarshi sh.	269,0	273,0	101,5
Shahrisabz sh.	135,5	138,0	101,8
tumanlar:			
G'uzor	197,3	201,0	101,9
Dehqonobod	142,1	145,1	102,1
Qamashi	261,7	267,4	102,2
Qarshi	238,7	244,0	102,2
Koson	275,0	280,9	102,1
Kitob	255,9	260,9	102,0
Mirishkor	115,7	117,7	101,7
Muborak	83,9	85,6	102,0
Nishon	146,8	150,2	102,3
Kasbi	189,6	193,5	102,1
Chiroqchi	393,7	404,0	102,6
Shahrisabz	215,7	219,2	101,6
Yakkabog`	254,5	259,8	102,1

\*) dastlabki ma'lumot


Viloyat tumanlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 iyul holatiga eng ko'p aholi soni Chiroqchi tumanida 404,0 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 12,5 % ni) va Koson tumanida 280,9 ming kishini (8,7 %), Qarshi shahrida 273,0 ming kishini (8,4 %), aksincha eng kam aholi soni Muborak tumanida 85,6 ming kishi (2,6 %) va Mirishkor tumanida 117,7 ming kishini (3,6 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Chiroqchi tumanida 1,7 %ni, Dehqonobod, Koson, Kasbi va Yakkabog' tumanlarida 2,1%ni, Qamashi va Qarshi tumanlarida 2,2 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Qarshi shahrida 1,5 % ni Shahrisabz tumanida 1,6 % ni va Mirishkor tumanida 1,7 % ni tashkil etdi.

### Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



### Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2019 yil 1 iyul holatiga, % da dastlabki ma'lumot)



**Doimiy aholi sonining tumanlar kesimida jinslar bo'yicha taqsimlanishi**  
(2019 yillar 1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	Jami	Erkaklar	Ayollar
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3240,3</b>	<b>1638,3</b>	<b>1602,0</b>
Qarshi sh.	273,1	136,5	136,6
Shahrisabz sh.	138,0	70,0	68,1
tumanlar:			
G`uzor	201,0	102,0	99,0
Dehqonobod	145,1	73,1	72,0
Qamashi	267,4	135,3	132,1
Qarshi	244,0	121,2	122,8
Koson	280,9	142,3	138,6
Kitob	260,9	132,7	128,2
Mirishkor	117,7	60,1	57,6
Muborak	85,5	43,1	42,4
Nishon	150,1	75,1	75,0
Kasbi	193,5	98,7	94,8
Chiroqchi	404,0	205,2	198,8
Shahrisabz	219,2	111,5	107,7
Yakkabog`	259,8	131,5	128,3



**Tug'ilish.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 36,5 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,8 promilleni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega ko'paygan (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 22,5 promille bo'lgan).



**O'g'il bolalar:**  
19,3  
ming nafar


**Qiz bolalar:**  
bolalar: 17,2  
ming nafar

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari Qarshi shahrida (17,2 promilledan 21,1 promillega), Qamashi (22,9 promilledan 26,6 promillega) va Shaxrisabz shaxri (20,0 promilledan 21,4 promillega) tumanlarida va eng yuqori kamayish sur'atlari Chiroqchi (28,1 promilledan 26,8 promillega), Yakkabog' tumanida (23,3 promilledan 22,9 promillega), Mirishkor (22,2 promilledan 20,3 promillega) tumanlarida kuzatildi.

#### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskul-larning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

#### Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-iyun)



### Tumanlar kesimida tug`ilganlar soni birlik, o`shish yoki kamayish sur`ati %da (yanvar-iyun)

	2018 y.	2019 y.	O`shish yoki kamayish sur`ati % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>35228</b>	<b>36552</b>	<b>103,8</b>
Qarshi sh.	2282	2848	124,8
Shahrisabz sh.	1337	1463	109,4
tumanlar:			
G`uzor	2308	2307	99,9
Dehqonobod	1854	1901	102,5
Qamashi	2958	3515	118,9
Qarshi	2356	2436	103,4
Koson	3212	3373	105,0
Kitob	2557	2696	105,4
Mirishkor	1267	1178	93,0
Muborak	993	950	95,7
Nishon	1823	1763	96,7
Kasbi	2040	2101	103,0
Chiroqchi	5458	5346	97,9
Shahrisabz	1851	1740	94,0
Yakkabog`	2932	2935	100,1



**Vafot etganlar.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 6,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 3,7 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega kamaydi (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 4,1 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2019 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada o'sish sur'atlari Qarshi shahrida (4,2 promilledan 4,6 promillega), aksincha sezilarli darajada kamayishi sur'atlari Kasbi (4,4 promilledan 3,6 promillega), Chiroqchi (3,6 promilledan 3,0 promillega) Koson (3,8 promilledan 3,6 promillega), Mirishkor (3,9 promilledan 3,4 promillega), Dehqonobod (3,8 promilledan 3,5 promillega) va Shaxrisabz (4,3 promilledan 4,0 promillega) tumanlarida kuzatildi.


### Vafot etganlar



**Erkaklar:**  
3,3  
ming  
kishi

**Ayollar:**  
2,7  
ming  
kishi

### Tumanlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-iyun)



**Tumanlar kesimida o`lganlar soni birlik, o`sinh yoki kamayish sur`ati % da  
(yanvar-iyun)**


	2018 y.	2019 y.	O`sinh yoki kama- yish sur`ati % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>6398</b>	<b>5989</b>	<b>93,6</b>
Qarshi sh.	565	615	108,8
Shahrisabz sh.	270	288	106,7
tumanlar:			
G`uzor	476	434	91,2
Dehqonobod	265	252	95,1
Qamashi	509	479	94,1
Qarshi	532	460	86,5
Koson	520	499	96,0
Kitob	487	478	98,2
Mirishkor	224	200	89,3
Muborak	156	156	100,0
Nishon	263	254	96,6
Kasbi	410	341	83,2
Chiroqchi	699	597	85,4
Shahrisabz	459	434	94,6
Yakkabog`	563	502	89,2



2019 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 59,9 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,9 %i o'simtalardan, 5,1 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,8 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,7 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,1 %i yuqumli va parazitlar kasalliklaridan hamda 14,5 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 289 nafarni tashkil etib, ularning 54,0 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 25,6 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 9,0 %i tug'ma anomaliyalardan, 0 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,7 %i yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 0,7%i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 9,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



### 2019 yil yanvar-iyun

**Tabiiy o'sish.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 30,5 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 1,7 ming kishiga (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 28,8 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish: 30,5 ming kishi


**Nikoh.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 8,7 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,5 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Koson( (102,8 %), Qarshi shahri (110,4 %), Muborak (102,0 %), Yakkabog' (101,1 %) va eng yuqori kamayish sur'atlari Dehqonobod (75,8 %), Nishon (85,8%), Chiroqchi (82,2 %), Kitob (91,0 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.


**Nikohdan ajralishlar.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,8 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 0,5 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Dehqonobod (125,0 %), Qarshi (102,9 %) va eng yuqori kamayish sur'atlari Shahrisabz (85,1 %), Kitob (72,4 %), Kasbi (73,8%), Chiroqchi (67,1 %), Mirishkor (64,9%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Tumanlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti**  
(2019 yil yanvar-iyun)



### Tumanlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-iyun)



**Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni birlik, o`shish yoki kamayish sur`ati %da**

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018 y.	2019 y.	O`shish yoki kamayish sur`ati % da	2018 y.	2019 y.	O`shish yoki kamayish sur`ati % da
Qashqadaryo viloyati	9336	8733	93,5	899	773	86,0
Qarshi sh.	766	846	110,4	159	126	79,2
Shahrisabz sh.	389	338	86,9	53	52	98,1
tumanlar:						
G`uzor	566	551	97,3	41	39	95,1
Dehqonobod	513	389	75,8	24	30	125,0
Qamashi	782	719	91,9	71	59	83,1
Qarshi	630	631	100,2	69	71	102,9
Koson	813	836	102,8	50	48	96,0
Kitob	643	585	91,0	98	71	72,4
Mirishkor	342	347	101,5	37	24	64,9
Muborak	244	249	102,0	22	20	90,9
Nishon	508	436	85,8	35	37	105,7
Kasbi	535	502	93,8	42	31	73,8
Chiroqchi	1265	1040	82,2	70	47	67,1
Shahrisabz	624	540	86,5	67	57	85,1
Yakkabog`	716	724	101,1	61	61	100,0



**Migratsiya.** 2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5,4 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 8,7 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 3,3 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 2,2 ming kishi bo'lgan.



Migratsiya saldosinging yuqori darajasi hiroqchi (minus 0,6 ming kishi), Shahrisabz, Kitob Yakkabog'va Qamashi tumanlarida (minus 0,5 ming kishi), qayd etildi.

**Tumanlar kesimida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni  
va migratsiya saldosi, kishi (2019 yil yanvar-iyun)**



	Ko'chib kelganlar		Ko'chib ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>5937</b>	<b>5424</b>	<b>8123</b>	<b>8745</b>	<b>-2186</b>	<b>-3321</b>
Qarshi sh.	934	1264	1251	1180	-317	84
Shahrisabz sh.	160	205	215	398	-55	-193
tumanlar:						
G`uzor	62	231	470	<b>333</b>	-408	-102
Dehqonobod	195	163	453	464	-258	-301
Qamashi	311	238	580	698	-269	-460
Qarshi	1091	796	614	587	477	209
Koson	431	245	504	518	-73	-273
Kitob	341	238	601	705	-260	-467
Mirishkor	131	180	276	246	-145	-66
Muborak	295	204	319	287	-24	-83
Nishon	854	528	516	499	338	29
Kasbi	232	295	420	365	-97	-70
Chiroqchi	104	126	729	718	-625	-592
Shahrisabz	277	356	560	865	-283	-509
Yakkabog`	428	882	615	882	-187	-527

## Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018 yil	2019 yil
Ko'chib kelganlar	5,9	5,4
Ko'chib ketganlar	8,1	8,7
Migratsiya saldosi	-2,2	-3,3



## Aholi migratsiyasi ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar (yanvar-iyun)



Viloyat statistika boshqarmasi Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi  
(71) 230-84-05 (75) 221-15-84